Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



KICHIK FIRMALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING MINTAQAVIY MUAMMOLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Vaisov Dilshod Ibodullayevich

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirish xususiyatlari o'rganilgan, Xorazm viloyatidagi kichik firmalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asosida raqobatbardoshlikni oshirishning mintaqaviy muammolari tahlil qilingan, zaruriy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, raqobarbardoshlik, kichik firmalar raqobatbardoshligini ta'minlash va oshirish, kichik biznesni rivojlantirish va raqobatbardoshliginin oshirishning mintaqaviy muammolari.

Abstract: In this article, the issues of increasing the competitiveness of small firms were studied, regional problems of increasing competitiveness were analyzed based on a survey of small firms in the Khorezm region, necessary conclusions were made.

Key words: regional problems of small business and private entrepreneurship, competitiveness, ensuring and increasing the competitiveness of small firms, developing small businesses and increasing their competitiveness.

Аннотация: В данной статье изучены особенности повышения конкурентоспособности малых фирм, проанализированы региональные проблемы повышения конкурентоспособности на основе опроса малых фирм Хорезмской области, сделаны необходимые выводы.

Ключевые слова: региональные проблемы обеспечения и повышения конкурентоспособности малого бизнеса и частного предпринимательства, конкурентоспособности, конкурентоспособности малых фирм, развития и повышения конкурентоспособности малого бизнеса.

KIRISH

Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash va oshirish mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun muhim yo'nalish bo'lib, mintaqada raqobatbardosh kichik firmalar sonining oshishi ham yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'payishiga, ham tadbirkorlik muhitini yaxshilanishiga hamda mintaqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini oshishi, ishsizlikni kamaytirish hamda aholi daromadlarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan nafaqat respublika darajasida, balki mamlakat mintaqalarida ham kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash va oshirish muammolari o'rganishga bugungi kunning dolzarb ilmiy – amaliy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Prezidentimiz tomonidan davomli tarzda kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash va oshirish maqsadida chiqarilgan qaror va farmonlari mazkur yo'nalishda ko'plab ijobiy omillarni shakllanishiga zamin yaratdi. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4417-sonli qarori; "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF – 6019 sonli Farmoni, "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ – 5087 sonli qarori hamda "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmonlari shular jumlasidandir [1; 2; 3; 4].

Mamlakatimiz va mintaqalar hududiy xususiyatlarini inobatga olgan holda kichik biznes subyektlarni rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy va metodologik asoslari ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilib, ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari chop qilingan. Jumladan, "Turkiyada kichik va o'rta biznes vakillarining raqobatbardoshligi va raqobat ustunligini ta'minlashda klasterlashtirishning



ta'siri" mavzusida tadqiqotlar qilgan turk olimi Deniz Timurchin ham ushbu yo'nalishda ko'plab foydali izlanishlar va tahlillarni amalga oshirgan. Xususan, kichik firmalar raqobatbardoshligining ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot ishlari va sotuv faoliyati bilan bog'liq kriteriyalarga ajratgan holda tadqiq qilgani alohida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, raqobatbardoshlikning ishlab chiqarish bilan bog'liq mezonlari (kriteriyalari) sifatida mahsuldorlik, mehnat unumdorligi, tannarx, ishlab chiqarishni moslashuvchanligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, malakali, sifatli mehnat resurslari mavjudligini o'rgangan bo'lsa, ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liq mezonlar sifatida yangilanuvchanlik, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, tajriba konstruktorlik ishlarini yuritish, texnologiya, laboriya imkoniyatlari bo'lsa, sotuv faoliyati bilan bog'liq mezonlariga sifat standartlariga moslik, yetkazib berishda tezkorlik, firma sotuvida eksport ulushi, firmaning bozor ulushi kiritgan ^[5]. Shuningdek, boshqa turk olimi Aydin Kayabashi tomonidan "Kichik va o'rta biznes firmalarida raqobatbardoshlikni shakllantirishda xaridorlar bilan o'zaro aloqalarni boshqarish" mavzusida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda kichik firmalarning bir qancha o'ziga xosliklari keltirilgan. Bular:

- texnologik yangiliklarga tezkor moslashuv;
- ozroq investitsiya bilan ko'proq xodimni band qila olish;
- bozordagi talab bo'shliqlarini qisqa vaqt ichida to'ldira olish;
- talab shartlari o'zgarishlariga qulayroq moslashuv;
- ishlab chiqarishda tajriba o'rganish metodining ustunligi;
- barqaror ishlab chiqarishning imkonsizligi va boshqalar.

Ushbu o'ziga xosliklardan kichik va o'rta biznes subyektlarining raqobat ustunliklari va zayifliklari keltirib chiqarilgan. Kichik va o'rta biznes subyektlarining raqobat ustunliklari sifatida:

1. Xaridorlar va xodimlar bilan o'zaro yaqinroq munosabatlarni yo'lga qo'ya olishlik;
2. Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda yirik korxonalarga nisbatan moslashuvchanlik (elastiklik);
3. O'zlari mavjud bo'lgan bozor segmentini, uning xususiyatlari va shartlarini yaxshi bilishlik;
4. Tashqi muhitda bo'ladigan o'zgarishlarga vaqti va joyida moslasha olishlik.

Kichik va o'rta biznes subyektlarining raqobat zayifliklari sifatida esa kuchsiz raqobat, umumiy boshqaruvning yetishmasligi, strategik qarorlar qabul qilinishida ta'sischi, hamkorlar va xodimlar bilan to'liq kelishilmasligi, kuchli moliyaviy maslahatchi va mutaxassislarining yetishmasligi, mablag' yetishmasligi, moliyaviy rejalashtirishning yetishmasligi, banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yetarli yordam ololmaslik, moliyaviy bozorlardan yetarlicha foydalana olmaslik, mahsulotni takomillashtira olmaslik, ishlab chiqarish va sotuv orasidagi koordinatsiya yetishmasligi, zamonaviy sotuv imkoniyatlaridan foydalana olmaslik, ta'minot bo'yicha zarur va o'xshash materiallarni izlab topa olmaslik, ishlab chiqarish va omborlarning kichikligi va yetishmasligi, moliyaviy mustaqillikni yo'qotish va inqirozga uchrash riski, malakali xodimlarni yollay olmaslik, byurokratiya mavjudligi va qonunchilikning takomillashmaganligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, xaridorlar bilan o'zaro aloqalarni boshqarishni amalga oshirish asnosida korxona raqobatbardoshligini ta'minlash, ya'ni xaridorlar sadoqatini oshirishga intilish orqali, ham mahsulot (xizmat) sifatini yaxshilash, ham potensial xaridorlar sonini oshirishga harakat qilish lozimligi tadqiqot xulosasi sifatida berilgan ^[6].

Kichik biznes raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha izlanishlar olib borgan, rus iqtisodchisi Slivinskiy Yelisey Vladimirovichga ko'ra quyidagilar Rossiya Federatsiyasida kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirishning asosiy muammolari sifatida tavsiflanishi mumkin:

- kreditlash amaliyotining kamligi, yuqori foiz stavkalari va nomaqbul kreditlash shartlarining mavjudligi;
- bank sektori xizmatlari narxining yuqoriligi, kichik firmalarda banklarga nisbatan ishonchning shakllanmaganligi;
- yirik biznes vakillariga yuqori shart shartlar yaratilganligi, ularga kam riskli, xavfsiz biznes qilish imkoniyatlarining mavjudligi;
- mintaqaviy bozorlarga chiqish murakkabligi;
- soliq tizimining nomukammalligi;
- mintaqaviy o'ziga xoslikka muvofiq elastik va segmentatsion davlat nazoratining yo'qligi;



- mintaqada, ayniqsa, tarmoqlarda biznes yuritish shartlariga mos keladigan alohida me'yoriy-huquqiy bazaning yo'qligi;
- mahalliy investorlarning huquqlarini himoya qilish;
- kommunal tashkilotlarning korrupsiyasi, sarf-xarajatlarning kichik firmalar uchun nomaqbuligi;
- shuningdek, nazorat qiluvchi tashkilotlar tomonidan haddan tashqari nazoratning tadbirkorlik tashabbuslariga to'sqinlik qiluvchi ta'siri mavjudligini ko'rsatadi.

Ushbu shartlarning barchasi biznes yuritishning tranzaktsion xarajatlarini oshiradi, mintaqadagi moliyaviy dinamizm harakatchanlikni kamaytiradi. Mintaqadagi kichik firmalar faoliyati uchun normativ-huquqiy platformaning nomuvofiqligi tartibga solish nuqtayi nazaridan kichik biznes vakillari va mintaqaviy nazorat organlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuviga olib keladi. Buning natijasida mintaq ichkarisida iqtisodiy munosabatlarda burilish, iqtisodiy holatni sezilarli darajada beqarorlashtiruvchi hamda individual iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishning tartibsiz shakllarini shakllantirishga hissa qo'shadigan, mintaqaviy moliya institutlari faoliyatida samarali o'sish imkoniyatlarini cheklaydigan vaziyatlar yuzaga kelishi haqida Slivinskiy to'xtalib o'tgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirishning mintaqaviy muammolarini o'rganishda iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo'yicha mintaqadagi faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish asnosida ushbu soha subyektlarining raqobatbardoshligi hamda uni oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni belgilash, o'rganish tahlil qilish asosiy tadqiqot metodologiyasi sifatida ishlatilgan. Shuningdek, mazkur yo'nalish bo'yicha aniqlangan mavjud muammolar hamda ta'sir qiluvchi asosiy omillarni chuqurroq o'rganish hamda amaliy xulosalar qilish maqsadida kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirishning mintaqaviy muammolarini guruhlash asosida tahlil qilish o'tkazilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan kichik firmalarning o'zaro raqobatlashishi, raqobatbardoshlik xususiyatlarini aniqlash, tadbirkorlarning raqobat va raqobatbardoshlik tushunchasi va ko'rsatkichlari bilan bog'liq fikrlarini, mintaqadagi va iqtisodiy tarmoqlaridagi raqobat muhiti, raqobatbardoshlikga ta'sir qiluvchi omillar, eng asosiysi, kichik firmalar raqobatbardoshligiga ta'sir yetayotgan mintaqaviy muammolarni o'rganish maqsadida jami, 8 ta kompleks savollardan iborat anketa so'rovnoma asosida ijtimoiy tadqiqot o'tkazildi. Savollarni tuzish va tanlashda mazkur yo'nalishda samarali tadqiqotlar o'tkazgan xorijiy olimlar Deniz Timurcin, Simla Guzel, E. Slivinskiylarning ishlanmalaridan tadqiqot metodologiyasi sifatida foydalanildi [5; 6; 7].

Anketa so'rovnomada mintaqamizning deyarli barcha tumanlaridan kichik korxonalarining ta'sischi, rahbar va moliyaviy xodimlari ishtirok qildi. To'plangan 150ga yaqin anketalardan mazmunan va shaklan mos va to'liq to'ldirilgan, yakullangan jami 100ta anketa so'rovnoma tahlil uchun tanlab olindi. Anketasi tanlab olingan respondentlarning 28 %i qishloq xo'jaligi, 12 %i sanoat, 19 %i qurilish, 13 %i xizmat ko'rsatish, 28 %i savdoda faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, mazkur kichik korxonalarining ta'sischi va rahbarlarning 82%i yerkak, 18 %i ayol kishi, 30 yoshgacha bo'lganlar 13 %ni, 30-40 yosh oralig'idagilar 40 %ni, 40-50 yosh oralig'idagilar 27 %ni, 50 yoshdan kattalar 20 %ni tashkil qildi.

Anketa so'rovnoma savollari kompleks ko'rinishda ya'ni ham savolga nisbatan munosabatni ifodalovchi hamda savol bo'yicha taklif qilingan omillarni (taklif qilish) tanlash bo'yicha shakllantirilgan bo'lib, respondentlarning savollar bo'yicha javob berish va tanlash, taklif berish imkoniyatlarini oshirishga mo'ljallangan. Tadqiqotni o'tkazish jarayonida respondent tadbirkorlar tomonidan savollarga munosabat bildirish, tanlash jarayoni ancha qiyin, murakkab tarzda va cho'zilgan holda kechdi. Bunga sabab sifatida respondentlarning firmalar operatsion faoliyati bo'yicha o'ta bandligi, bu kabi tadqiqotlarda oldin ishtirok yetmaganliklari, munosabat bildirishda ancha yehtiyotkor bo'lganliklarini ko'rsatishimiz mumkin.

Tadqiqotimizning tahliliy qismini dastlab, respondentlarning bevosita munosabat bildirishlari bilan bog'liq savollari asosida boshlashni o'rinli deb topdik. Xususan, 1-jadvalda kichik firmalar rivojlanishi uchun mintaqaning qulayligi bo'yicha berilgan javoblarga ko'ra umumiy holatda 89 foiz respondentlar mintaqani qulay deb, 11 foizi esa noqulay deb hisoblashini bildirgan. Tarmoqlar bo'yicha esa qishloq xo'jaligida 82 foiz tadbirkorlar mintaqani qulay deb, qolgan 18 foizi esa noqulay hisoblaydi. Sanoatda ushbu ko'rsatkich mos ravishda 83 va 17 foizni, qurilishda esa 95 va 5 foizni tashkil qildi. Mintaqa qulayligi bo'yicha eng past munosabat xizmat ko'rsatishda, ya'ni 77 foiz qulay, 23 foiz noqulay kuzatilgan bo'lsa, savdo sohasida kichik firmalarning 96 foizi mintaqani rivojlanish uchun qulay, deb hisoblanishini bildirgan.

1-jadval: Kichik firmalar rivojlanishi uchun mintaqaning qulayligi tahlili¹

	Savolga javob berish darajasi, foizda	Qulay deb javoblaganlar, foizda	Noqulay deb javoblaganlar, foizda
Kichik firmalar rivojlanishi uchun mintaqaning qulay yoki noqulayligi	100	89	11
Tarmoqlar bo'yicha			
Qishloq xo'jaligi	100	82	18
Sanoat	100	83	17
Qurilish	100	95	5
Xizmat ko'rsatish	100	77	23
Savdo	100	96	4

2-jadval: Kichik firmalar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili²

	Savolga javob berish darajasi, foizda	Ijobiy deb javoblaganlar, foizda	Salbiy deb javoblaganlar, foizda
Kichik firmalar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijobiy/salbiy omillar ko'pligi	100	94	6
Tarmoqlar bo'yicha			
Qishloq xo'jaligi	100	96	4
Sanoat	100	92	8
Qurilish	100	95	5
Xizmat ko'rsatish	100	77	23
Savdo	100	100	0

Mintaqada kichik firmalar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish maqsadida berilgan "Kichik firmalar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijobiy/salbiy omillar ko'pligi" savoli bo'yicha ijobiy omillar ko'p deya munosabat bildirgan respondentlar 94 foizni, salbiy omillar ko'proq deb hisoblovchilar 6 foizni tashkil qilgan. Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha tahlil qilinganda esa ijobiy omillar ustunligini tasdiqlovchilar savdoda ko'pligini (100 foiz) hamda salbiy omillar ustun deb hisoblovchilar xizmat ko'rsatish sohasida (23 foiz) ekanligi kuzatildi. Shuningdek, sanoatda ham salbiy omillarni bartaraf qilish ustida ishlash lozimligi aniqlandi (salbiy omillar 8 foiz).

Mintaqada kichik firmalar rivojlanishi va raqobat muhitini shakllanishi bilan bog'liq omillarni aniqlash, asosiy ta'sir qiluvchi omillarni belgilash maqsadida respondent tadbirkorlarga jami 10 ta yo'nalishda omillar taklif qilindi. Tahliliy asosni ko'paytirish maqsadida respondentlardan birdaniga 3 ta omilni tanlash so'raldi (3 jadval). Tanlangan omillar tahlili natijasiga ko'ra kichik firmalar rivojlanishi eng ko'p bog'liq omillar sifatida:

1. Ishonchli savdo hamkorlari mavjudligi (ta'minot va sotuv bo'yicha);
2. Zaruriy infrastruktura mavjudligi;
3. Malakali ishchilar mavjudligi;
4. Soliq tizimi to'g'ri tanlanishi;
5. Kreditlash tizimi to'g'ri tanlanishi tanlanganligi aniqlandi.

Taklif qilingan omillar ichida respondentlar tomonidan eng ta'siri past omillar sifatida mahalliy hokimiyat aralashuvi va ta'siri hamda sifat menejmenti tizimi mavjudligi kabi omillar tanlandi. Mintaqada kelgusida kichik firmalarni yanada rivojlanishi uchun amaliy va zaruriy takliflar berish maqsadida asosan salbiy ta'sirni, ya'ni kichik firmalar rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab olish maqsadida jami 9ta yo'nalishda salbiy omillarni belgilagan holda o'tkazilgan so'rovimiz natijalariga ko'ra zaruriy infrastruktura (yelektir energiya, tabiiy gaz, ichimlik suvi, transport kommunikasiyasi, internet)ning yetishmovchiligi; xom ashyo va butlovchi qismlarning yetishmasligi; malakali ishchilar yo'qligi (yetishmasligi) va soliq yukining yuqoriligi eng ko'p ta'sir qiluvchi salbiy omillar sifatida tanlandi.

1 Muallifning o'tkazgan so'rovnoma tadqiqotlari natijalaridan

2 Muallifning o'tkazgan so'rovnoma tadqiqotlari natijalaridan

**3-jadval: Mintaqada kichik firmalar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili³**

Kichik firmalar rivojlanishiga eng katta ta'sir qiluvchi omillar	Jami tanlangan omillar soni	Jamiga nisbatan foizda
Soliq tizimi to'g'ri tanlanishi	43	14,33
Kreditlash tizimi to'g'ri tanlanishi	30	10,00
Raqobat muhiti pastligi	3	1,00
Raqobat muhiti yuqoriligi	26	8,67
Zaruriy infrastruktura mavjudligi	52	17,33
Xom ashyo va butlovchi qismlar ta'minoti mavjudligi	38	12,67
Malakali ishchilar mavjudligi	45	15,00
Sifat menejmenti tizimi mavjudligi	7	2,33
Ishonchli savdo hamkorlari mavjudligi (ta'minot va sotuv bo'yicha)	53	17,67
Mahaliy hokimiyat aralashuvi	3	1,00
Jami omillar to'plami	300	100,00

Respondentlar tomonidan mahalliy hokimiyat aralashuvi; ishonchsiz va imkoniyati cheklangan hamkorlarning ko'pligi va bozorda sifatsiz mahsulotlarning ko'pligi kabi salbiy omillar ham ko'rsatildi.

"Mintaqada kichik firmalar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish uchun Hukumat tomonidan qanday ishlar amalga oshirilishi kerak?" savolimizga respondentlar tomonidan Hukumat faoliyatini to'liq raqamlashtirishi; kichik firmalar faoliyatini maqsadli subsidiyalashni joriy qilishi; korrupsiyaga qarshi kurashishi; mintaqaga xorijiy korxonalar kirishini va xorijiy mutaxassislarni jalb qilinishini rag'batlantirishi; soliq va kredit imtiyozlarini bekor qilishi va erkin iqtisodiy (savdo, sanoat) zonalarini yaratishi kabi yo'nalishlar tanlandi.

4-jadval: Mintaqada kichik firmalar rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar tahlili⁴

Kichik firmalar rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar	Jami tanlangan omillar soni	Jamiga nisbatan foizda
Davlat organlarida korrupsiyaning mavjudligi	21	7,00
Imtiyozli kreditlash tizimida tanish bilishchilikning yuqoriligi	19	6,33
Qonun ustuvorligi darajasining pastligi	16	5,33
Soliq yukining yuqoriligi	37	12,33
Zaruriy infrastruktura (yelektr yenergiya, tabiiy gaz, ichimlik suvi, transport kommunikasiyasi, internet) ning yetishmovchiligi	62	20,67
Xom ashyo va butlovchi qismlarning yetishmasligi	52	17,33
Malakali ishchilar yo'qligi	43	14,33
Eksport va importning o'ta murakkabligi, bu yo'nalishlarda ishonchli hamkorlarning yetishmasligi (ta'minot va sotuv bo'yicha)	21	7,00
Nosog'lom va monopol raqobat muhitining mavjudligi	20	6,67
Mahalliy hokimiyat aralashuvi	4	1,33
Ishonchsiz va imkoniyati cheklangan hamkorlarning ko'pligi	4	1,33
Bozorda sifatsiz mahsulotlarning ko'pligi	1	0,33
Jami omillar to'plami	300	100,00

Respondent bo'lgan kichik firmalarning raqobatbardoshlik omillarini o'rganish maqsadida berilgan "O'zingizning kichik firmangiz nimasi bilan raqobatbardosh?" so'rovnomamizga javoban 26.67 foiz holatda javob bera olmaslik holati kuzatildi.

O'tkazilgan so'rovnomaga ko'ra mintaqada kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha muammolar mavjudligi to'g'risidagi so'rovimizga barcha tadbirkorlar muammolar mavjud deb hisoblashlarini bildirishdi.

3 Muallifning o'tkazgan so'rovnomaga tadqiqotlari natijalaridan.

4 Muallifning o'tkazgan so'rovnomaga tadqiqotlari natijalaridan.



5-jadval: Mintaqada kichik firmalar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish uchun Hukumat tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar (omillar) tahlili⁵

Mintaqada kichik firmalar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish uchun Hukumat tomonidan qanday ishlar amalga oshirilishi kerak?	Jami tanlangan omillar soni	Jamiga nisbatan foizda
Korrupsiyaga qarshi kurashishi	47	15,67
Hukumat faoliyatini to'liq raqamlashtirishi	57	19,00
Soliq va kredit imtiyozlarini bekor qilishi	31	10,33
Mintaqaga xorijiy korxonalar kirishini va xorijiy mutaxassislarni jalb qilinishini rag'batlantirishi	35	11,67
Ta'lim tizimini raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga yo'naltirishi	16	5,33
Kichik firmalar qimmatli qog'ozlar bozori tashkil qilinishi va ularni kapitallashuvini darajasini oshirishi	14	4,67
Erkin iqtisodiy (savdo, sanoat) zonalarini yaratishi	25	8,33
Mintaqadagi kichik firmalarga transfert (davlat yordami) to'lovlarini joriy qilishi	17	5,67
Kichik firmalar faoliyatini maqsadli subsidiyalashni joriy qilishi	57	19,00
Mahalliy davlat organlari ta'sirini kamaytirish	1	0,33
Jami omillar to'plami	300	100,00

Raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha asosiy muammolar sifatida quyidagi muammolar tanlandi: – Ishonchli hamkorlarining kamligi (ta'minot va sotuv bo'yicha), iqtisodiy erkinlikning qisman cheklanganligi, tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan biznesga yashirin bosim mavjudligi; Yashirin iqtisodiyot darajasining yuqoriligi; Firma rahbarlari va tadbirkorlarda raqobatbardoshlik va uni oshirish bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarning pastligi; Mintaqadagi biznes munosabatlarda qarindosh urug'chilik va tanish-bilishchilikning yuqori darajada ekanligi; Bilimli raqobatbardosh xodimlarning kamligi va kapitallashish imkoniyatlarining pastligi (aksiyalarini emissiya qilish va ularni bahosini muntazam oshirish imkoniyati).

6-jadval: Mintaqada kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirish omillari tahlili

Mintaqamizda kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha muammolar	Jami tanlangan omillar soni	Jamiga nisbatan foizda
Firma rahbarlari va tadbirkorlarda raqobatbardoshlik va uni oshirish bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarning pastligi	41	13,67
Soliq stavkalarining yuqoriligi va soliq tizimining murakkabligi	20	6,67
Kredit foiz stavkalarining yuqoriligi va kreditlash tizimining noqulayligi	15	5,00
Kichik firmalar o'rtasida sog'lom raqobat darajasining pastligi	17	5,67
Bilimli raqobatbardosh xodimlarning kamligi	26	8,67
Mintaqadagi biznes munosabatlarda qarindosh urug'chilik va tanish-bilishchilikning yuqori darajada ekanligi	41	13,67
Yashirin iqtisodiyot darajasining yuqoriligi	53	17,67
Kapitallashish imkoniyatlarining pastligi (aksiyalarini emissiya qilish va ularni bahosini muntazam oshirish imkoniyati)	26	8,67
Ishonchli hamkorlarining kamligi (ta'minot va sotuv bo'yicha), iqtisodiy erkinlikning qisman cheklanganligi, tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan biznesga yashirin bosim mavjudligi	61	20,33
Jami omillar to'plami	300	100,00

Raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha asosiy muammolar sifatida quyidagi muammolar tanlandi: Ishonchli hamkorlarining kamligi (ta'minot va sotuv bo'yicha), iqtisodiy erkinlikning qisman cheklanganligi, tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan biznesga yashirin bosim mavjudligi; Yashirin iqtisodiyot darajasining yuqoriligi; Firma rahbarlari va tadbirkorlarda raqobatbardoshlik va uni oshirish bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarning pastligi; Mintaqadagi biznes munosabatlarda qarindosh urug'chilik va tanish-bilishchilikning yuqori darajada ekanligi; Bilimli raqobatbardosh xodimlarning kamligi va kapitallashish imkoniyatlarining pastligi (aksiyalarini emissiya qilish va ularni bahosini muntazam oshirish imkoniyati).

⁵ Muallifning o'tkazgan so'rovnomaga tadqiqotlari natijalaridan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot mintaqadagi barcha kichik biznes subyektlari holati va muammolarini tavsiflaydi, deya olmaymiz. Shunday bo'lsa ham, tadqiqotimiz mintaq iqtisodiyotining deyarli barcha sohasi hamda tumanlarini qamrab olgani, qisman bo'lsa-da, ulardagi mavjud holatni tavsiflaganini, muammolarini aniqlaganligini asosiy muvaffaqiyat sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Qo'shimcha ravishda ko'pchilik tadbirkorlarda bunday tadqiqotlarda ishtirok yetish, o'z fikr, mulohaza hamda tajribalari, korxonalarining ma'lumotlari bilan bo'lishish qiyinchilik keltirib chiqargani ta'kidlash joiz. Bu kabi tadqiqotlarni ko'proq o'tkazish ularda nafaqat kichik korxonalarni boshqarishdagi ilmiylikga intilishning oshishiga, balki ularni o'z ustida yanada ko'proq ishlashiga, o'z biznesi va mintaq iqtisodiyoti raqobatbardoshligi va rivoji uchun mas'uliyatini oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-yanvardagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4417-sonli qarori.
2. "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019. 06.07.2020.
3. "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087., 21.04.2021.
4. "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60., 28.01.2022.
5. Turkiyede KOBllerin rekabet gucu va rekabet ustunlug'u sag'lamada kumelenmenin etkisi, Deniz Timurcin, t.c istanbul universitesi sosyal bilimlar enstitusu iktisat anabilim dali doktora tezi, aralik 2010-ISTANBUL).
6. KOBllerin rekabet gucunu artirmada ar-ge faaliyetleri^ bursa analizi, Simla Guzel, Uludag' Universitesi Iktisadi ve Idari Bilimler Fakultesi Dergisi, Uludag' Journal of Yeconomy and Society Ciit/Vol XXXIII, sayi/No. 1.2014 pp.95-118).
7. Slivinskiy Ye. V k.e.n DOI: 10.24411/2520-6990-2020-11375 Проблемы конкурентоспособности малого бизнеса в условиях глобализации, "Colloquium-journal"#4(56),2020 / pedagogical sciences.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.